
Viloyat hokimining o‘rinbosari Qo‘sh tepa tumanidagi investisiya dasturidagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi

Viloyat hokimi o‘rinbosari N.Mamajonov Qo‘sh tepa tumaniga tashrif buyurib investisiya dasturidagi korxonalar faoliyati bilan tanishib, muammoli loyihalarni o‘rgandi.

N.Mamajonov dastlab “Qumtepa” mahallasida qurib bitkazilgan “Gren park product” MCHJ tomonidan amalga oshirilayotgan muzlatkichli omborxonada tashkil etish loyihasini ko‘zdan kechirdi. Qiymati 5,0 milliard so‘mni tashkil etgan ushbu loyiha 2024 yil davomida qurib bitkazilgan.

Shundan so‘ng, “Sarmazor” mahallasi hududida joylashgan “Sharq ravon” MCHJ tomonidan qurib bitkazilgan qiymati 10,0 milliard so‘m bo‘lgan poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishni tashkil qilish loyihasi o‘rganildi. Hozirda ushbu loyihada 100 nafardan ortiq ish o‘rinlari yaratilgan.

Viloyat hokimi o‘rinbosari, “Rizo metal” MCHJ tomonidan tumanda barpo etilgan mix, shrup va samorez mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasini ham borib ko‘rdi. Korxonada tomonidan loyihani amalga oshirish maqsadida 500,0 ming dollar tadbirkor o‘z mablag‘laridan amalga oshirilgan.

Tumanining “O‘qchi” mahallasi hududida qurib bitkazilgan “Isfayramsoy export savdo” MCHJ tomonidan amalga oshirilayotgan muzlatkichli omborxonada tashkil etish loyihasi ham ko‘zdan kechirildi. Qiymati 6,0 milliard so‘mni tashkil etgan ushbu loyiha, 2024 yil davomida qurib bitkazilgan.

Bundan tashqari qo‘sh tepalik yoshlar bandligini ta‘minlash maqsadida ajratilgan yer maydonlariga ekilgan mahsulotlar ham ko‘zdan kechirildi.















2024-09-27 11:03:06